



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

7	Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA, “Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili	400
8	Nargiza UMURZAQOVA, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni	405
9	Nurjahon RAHMONBERDIYEVA, Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati	408
10	Mohinabonu RAHMATOVA, Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi	412
11	Sanobar TURSUNOVA, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar	414
12	Lobar AVAZOVA, Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi	417
13	Ozoda RAJABBOYEVA, “Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi	421

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1.	Matluba JABBOROVA, O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi	425
2.	G‘ayratbek XOLBUTAYEV, Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya	428
3.	Abdukamol ABDUJALILOV, Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati	433
4.	Ma‘mura RAMATOVA, Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish	437
5.	Gulruh RAVSHANOVA, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm	441
6.	Feruza TURDIMOVA, Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi	445
7.	Saodat JO‘RAYEVA, Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari	448
8.	Aziza SAYDULLAYEVA, O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini	451
9.	Huriniso XAYRULLAYEVA, “Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi	454
10.	Sadoqat KAMOLOVA, “Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)	456
11.	Shohzoda TURSUNBOYEVA, Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi	459
12.	Dilafruz MAHKAMOVA, “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri	463
13.	Nilufar DEHQONOVA, “Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi	468

MIFOLOGIK VA FANTASTIK TAFAKKURDA “BARHAYOTLIK”
MUAMMOSINING NAMOYON BO‘LISHI

THE REPRESENTATION OF THE PROBLEM OF “IMMORTALITY” IN FANTASTIC
AND MYTHOLOGICAL WORLDVIEW

Shohzoda TURSUNBOYEVA,

Toshkent amaliy fanlar universiteti mustaqil izlanuvchi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EDDH3844

Annotation. *The article analyzes the philosophical, mythological, and aesthetic interpretations of the problem of “immortality” in artistic thinking. It examines the inseparable connection between the concept of immortality and the phenomenon of death, as well as its material, symbolic, spiritual, and technological forms. Using examples from world literature and mythology such as Gilgamesh, Dracula, Frankenstein, and Harry Potter, the study demonstrates that physical immortality is often portrayed as having a tragic nature. In addition, the article explores the representation of the motif of eternity in national artistic thought through Nodirabegim Ibrohimova’s novella “The Witch, or the Thousand-Year Life” and the science-fiction works of Bahodir Abdurazzoq. The study concludes that spiritual and symbolic immortality are generally interpreted in literature and art as positive values, whereas physical and technological immortality are frequently associated with the destruction of human essence.*

Key words: *immortality, eternity, death, artistic thinking, mythology, fantasy literature, gothic novel, vampirism, transhumanism, spiritual immortality, symbolic immortality, technological immortality, literary thanatology, modernism, science fiction.*

Hayot va o‘lim tushunchalari kabi barhayotlik ham falsafa, din, san‘at va madaniyat tarixida markaziy o‘rinni egallovchi mavzulardan hisoblanadi. Chunki “O‘lim insonning va har qanday boshqa organizmning asosida yotadi. Ammo inson psixikasining himoya mexanizmlari doim o‘lim xavfi haqidagi haqiqatni ongdan yashiradi, uni boshqa bir narsaga, bu havfli axborotga nisbatan bilvosita bo‘lgan biror narsa bilan almashtiradi” [Балашова 2005; 4], – deb hisoblaydi madaniy paradigmada barhayotlikni konsept sifatida o‘rgangan Y.Balashova. Olima “barhayotlik” konsepsiyasining vujudga kelishi o‘limning haqiqiy mavjudligining inkor etilishi emas, aksincha, uning dahshatli mohiyatini yashirish deb hisoblaydi. Shuningdek, “barhayotlik”ni falsafa tarixida eng ko‘p qo‘llaniladigan konseptlardan biri sifatida ko‘rsatib, ko‘plab falsafiy kategoriyalar bilan genetik bog‘liqlikka ega ekanligi hamda u ko‘pincha bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan kategoriyalarni birlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Masalan, “barhayotlik” konsepti umumiylik va yakkalik, real va ideal, obyektiv va subyektiv, vaqtinchalik va doimiy kategoriyalarini dialektik tarzda birlashtiradi. Qolaversa, “o‘lim hodisasi ko‘plab lug‘atlarda organizmning hayotiy faoliyatining qaytarilmas to‘xtashi sifatida ta’riflanadi. Biroq “qaytarilmaslik” tushunchasi bilan birga “o‘lmaslik” g‘oyasi mantiqiy paradoksni yuzaga keltirishini [Tumarkina 2023; 75] ham unutmazlik lozim. Bu paradoksni o‘rgangan L.Tumarkina o‘lim - hayot - barhayotlikni triada sifatida ko‘rsatgan. Boshqa bir olim G.Kosyakov esa barhayotlikning o‘zini o‘lim bilan birgalikda kategoriya sifatida baholaydi. “O‘lim va barhayotlik madaniyatning tizim hosil qiluvchi kategoriyalari sifatida ontologik, diniy, axloqiy va estetik nuqtai nazardan anglanishi mumkin”, – deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, “...har bir dunyoqarash shakli va olam haqidagi bilim sohasida o‘lim hamda boqiylikka bo‘lgan munosabat o‘ziga xos ma’no bilan to‘ldiriladi hamda bu sirni diniy idrok etish Xudoga ishonchni, ruhning boqiyiligini, teoditsey muammolarini, immanent va transsendent munosabatini hal etishni nazarda tutadi. Etikada esa o‘lim va barhayotlik ezgulik va yovuzlik, hayot mazmuni va baxt kabi mohiyatli



kategoriyalar tizimida baholanadi” [Косяков 2000; 3]. Ko‘rinadiki, bu muammo inson dunyoqarashining markaziy masalalaridan biri bo‘lib kelgan va hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan.

Barhayotlik g‘oyasi madaniyat va san‘atning muhim tarkibiy qismi sifatida turli davr va xalqlarning badiiy tafakkurida o‘ziga xos talqin etilgan bo‘lib, u insonning olamdagi o‘rni va mavqeini belgilovchi mezonlardan biri hisoblanadi. Umuman, kishilik madaniyati tarixida inson barhayotligi haqidagi tasavvurlar quyidagi bosqichlardan o‘tganligi haqida farazlar mavjud: moddiy – ideal – ma‘naviy [Красильников 2020; 13]. Moddiy barhayotlik – jismoniy, biologik, fizik barhayotlik deb ham ataladi. Madaniyat tarixi, adabiyot va san‘atda turli eliksirlar, shaytoniy kelishuv yoki sehr orqali jismining abadiy o‘lmasligi va yoshlikni saqlab qolgan obrazlar va syujetlar aynan shu bosqich ta‘sirida yaratilgan. Ideal barhayotlik – ramziy barhayotlik ham deb nomlanadi. Ijod, san‘at va yodgorliklar orqali avlodlar xotirasida qolish bilan mangulikka o‘z nomini muhrlashni nazarda tutadi va adabiyot hamda san‘atda bunga misollar juda ko‘p. Ruhiy barhayotlik esa monoteistik dinlardagi qiyomat kuni qayta tirilish, buddaviylikdagi har o‘limdan so‘ng qayta tug‘ilish va falsafadagi inson ruhining abadiyligi haqida qarashlarga asoslanadi.

Zamonaviy postklassik ilmiy nazariyalar insonni murakkab, ochiq va o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizimning bir qismi sifatida talqin etib, uning mavjudligini nafaqat biologik, balki cheksiz va ehtimoliy barhayotlik nuqtai nazaridan o‘rganish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, biotexnologiya va gen muhandisligidagi yutuqlar inson hayotini uzaytirish va jismoniy barhayotlik g‘oyasiga yangi ilmiy yondashuvlarni yuzaga chiqarmoqda. Bu esa barhayotlikning yangi turi – texnologik barhayotlik masalasini kun tartibiga qo‘yadi. Ayni paytda, ijtimoiy-gumanitar fanlar va san‘atda barhayotlik vaqt va makondan tashqarida kechadigan mavjudlik sifatida talqin etiladi. Bu holat tabiiy fanlar va gumanitar yondashuvlar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish, barhayotlik fenomenini yaxlit falsafiy va madaniy kontekstda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu ma’noda, o‘lim inson ongida qabul qilinishi mushkul, biroq ong ostida doimiy qo‘rquv va iztirob bilan yashab keladigan sirli hodisa bo‘lsa, barhayotlik mazkur qo‘rquvni ma‘naviy jihatdan bartaraf etishga qaratilgan qadimiy tasavvur sifatida shakllangan. Ana shu murakkab kechinmalarni ifodalashda adabiyot va san‘at badiiy tafakkur vositasida eng samarali maydon bo‘lib, ijodkor real borliqni timsollar orqali qayta talqin etish, hayot, o‘lim va abadiylik jarayonlarini estetik yaxlitlikda aks ettirish imkoniga ega. Shu sababli o‘lim va abadiylik mavzularining badiiy talqini hamda ularning tarixiy ildizlarini o‘rganish adabiyotshunoslikning doimiy va muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Milliy olimlarimiz tomonidan R.Xudoyberganov tadqiqotlarida o‘lim va barhayotlik masalasining diniy va falsafiy talqinlarini tushuntirgan bo‘lsa [Xudoyberganov 2010; 158], T.Madalimov tadqiqotida qadimgi hind falsafasidagi ruh haqidagi tasavvurlar evolyutsiyasi Veda manbalari asosida tahlil qilinib, ruhning abadiyligi va barhayotlik g‘oyalarining falsafiy-ma‘naviy mohiyati yoritilgan [Madalimov 2024; 145]. J.Xolmo‘minov asarlarida esa vahdat ul-vujud ta‘limotining falsafiy-ma‘naviy mohiyati, inson va ilohiy borliq munosabati, ruhiy kamolot hamda barhayotlik g‘oyalarining tasavvufdagi talqini Jomiy qarashlari asosida chuqur tahlil qilinib, uning naqshbandiylik va Sharq falsafiy tafakkuridagi o‘rni yoritilgan [Xolmo‘minov 2020; 324].

Umuman olganda, barhayotlikning ko‘plab miqlar, diniy e‘tiqodlardan tortib fantastik va klassik adabiyotda uchraydigan shakllarida boqiy hayotga erishishga olib keladigan juda ko‘plab usul va motivlar keltirilgan: ilohiy in‘om yoki la‘nat, sirli eliksirlar, sehr, jinlar yoki ruhlar bilan kelishuv yoki vampirlik. Biroq badiiy adabiyotda barhayotlik ifodalanishi ko‘pincha quyidagicha falsafiy muammo sifatida tasvirlanadi: abadiy yashash haqiqatdan ham baxt-saodatmi yoki la‘nat? Ayniqsa zamonaviy falsafada ko‘pchilik faylasuflar barhayotlik g‘oyasiga nisbatan juda sovuqqon va pessimist qarashadi. Bunday qarashlarga ko‘ra, “abadiy hayot “shakl”dan mahrum bo‘lar edi; yaxlit narrativ (hayotiy syujet) hosil qila olmas edi; inson hayoti uchun zarur bosqichlarga ega bo‘lmas edi; cheksiz davom etuvchi umr inson tafakkuri bilan anglab bo‘lmaydigan hodisa bo‘lar edi; bunday hayot yagona inson shaxsining hayoti sifatida saqlanib qolmas edi; unda hayotni qadrl

qiladigan “xavf va iztirob” hissi yo‘qolardi; va nihoyat, u albatta zerikarli bo‘lib qolardi” [Fischer 2022; 343].

Mifologiyada mangu umrning kishi boshiga keltirgan turli xususiyatlari mavjud: u ba‘zan ilohiy in‘om yoki la‘nat sifatida yoki qahramonning imkonsiz orzusi sifatida ifodalangan. “Mangu hayotni izlash” voqeasi aksariyat miflarda syujetni yo‘naltiruvchi vazifa bajaradi. Shumer mifologiyasining yorqin namunasi bo‘lgan “Gilgamesh” (yoki “Bilgamish”) dostoni shular jumlasidandir. Qadimgi Bobilning “Gilgamesh” dostonida do‘sti Endikuning o‘limidan so‘ng qattiq ta’sirlangan Gilgamesh abadiy yoshlik va hayot beruvchi obihayot ichimligini qidirib uzoq sayohatga chiqishi, azob-uqubatlar chekishi tasvirlangan [Эпос о Гильгамеше / электрон. текст]. Bu dostonida qahramon Ut-Napishtim (Shumercha Nuh, To‘fon voqeasidan omon qolgan uzoq umr ko‘ruvchi inson) bilan uchrashib, manguлик sirini bilishga intiladi, lekin bunga erisha olmaydi. Ushbu mif insoniyat uchun barhayotlik imkonsizligi va hayotning o‘tkinchiligi haqida falsafiy g‘oyani ifodalaydi.

Mif va folklordan oziqlangan gotik, fantastik va sehrli realizm yo‘nalishidagi asarlarda ko‘pincha oddiy inson emas, g‘ayb olami vakillari – devlar, jinlar, jodugarlar, parilar yoki ruhlar obrazlari mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha o‘lmas yoki uzoq umr ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lishadi yoki shu maqsaddagi inson zoti bilan kelishuv amalga oshirishadi. Jahon fantastik adabiyotida biologik o‘lmaslik yoki umrni uzaytirish xususiyatiga erishgan fantastik obrazlarining eng mashhurlari Graf Drakula, Frankenshteyn yaratgan mavjudot, Dorian Grey, Voldemort kabilarni keltirish mumkin.

“Drakula” vampirlar haqidagi zamonaviy tasavvurlarni shakllantirgan **klassik gotik roman. U Bram Stoker tomonidan** 1897-yilda yozilgan [Stoker 2023; 368]. Vampirlar fantastik adabiyotdagi eng mashhur o‘lmas mavjudotlar bo‘lib, ular inson qonini so‘rish bilan oziqlanib, doimiy hayot evaziga boshqa insonlar hayotini tortib olishadi. Roman irland yozuvchisining eng mashhur asari, unda **o‘lim va manguлик, zamonaviylik va qadimiylık** mavzulari birlashgan. **“Frankenshteyn yoki zamonaviy Prometey”** ingliz yozuvchisi **Mery Shelley** tomonidan yozilgan va ilk bor **1818-yilda** nashr etilgan roman. Bu asar ko‘plab mutaxassislar tomonidan **birinchi ilmiy-fantastik roman** sifatida e‘tirof etiladi [Shelli 2024; 352]. Unda ilm, axloqiy masalalar, inson tabiatining chegaralari, inson yaratuvchanligining chegaradan chiqishi, ilohiy ishlarga insonning aralashuvi oqibati kabi mavzular yoritiladi. Syujetga ko‘ra, Viktor Frankenstein o‘z ilmiy bilimlari orqali o‘lik jasadlardan yangi, tirik, mustaqil fikrlaydigan va qarimaydigan mavjudot yaratadi. Bu mavjudot oddiy odam kabi kasallanmas, qarimas va nihoyatda chidamli edi, ammo ruhiy azob, yolg‘izlik, xunuk qiyofasi tufayli jamiyat tomonidan rad etilish (marginalizm) uni o‘z joniga qasd qilish istagiga olib keladi. U o‘zining o‘lmasligini la‘nat deb biladi, binobarin, bu barhayotlik mavzusidagi aksariyat fantastik asarlarning yakuniy xulosasidir. **Jismoniy barhayotlikka erishmoqchi bo‘lgan yana bir taniqli obraz fantastika, yoshlar adabiyoti, sarguzasht va sirli detektiv** yo‘nalishlarining uyg‘unlashuvidan tashkil topgan zamonaviy bestseller roman “Garry Potter”dagi antiqahramon – Voldemort. U o‘lmaslikka erishish uchun ruhining bir qismini bir necha buyumga joylashtiradi. Bu sehrli amal uni tabiiy o‘limdan saqlab qolsa-da lekin jismoniy qiyofasini va ichki olamini xunuklashtirib yuboradi.

Yuqoridagi asarlar mutolaasi va media mahsulotlari ta’sirida o‘zbek adabiyotida ham dahshat, fantastika va ilmiy-fantastika janrida, ayniqsa jismoniy barhayotlik mavzusidagi asarlar yaratildi. Jumladan, Nodirabegim Ibrohimovanning “Jodugar yohud ming yillik hayot” qissasida G‘arb adabiyotida mavjud bo‘lgan jodugar, lo‘li va ruhoniyl obrazlari milliy muhit bilan uyg‘unlashib, abadiy hayotning sehr va la‘nat bilan bog‘liq talqini beriladi. Asar markazida Maryam la‘nati tufayli ming yil yashashga mahkum bo‘lgan Ibrohim turadi. Qissada Ibrohim hamda 458 yil umr ko‘rgan Xoliqbey obrazlari orqali boqiylikning insonni hayot mazmunidan mahrum etishi ko‘rsatiladi. Yakunda Ibrohim abadiylik azobini anglab, undan voz kechadi. Asar inson uchun qancha yashash emas, qanday yashash muhimligi, barhayotlikning fojiaiy mohiyati va o‘lim oldidagi qo‘rquv g‘oyalarini yoritadi.

O'zbek adabiyotida modernizm va fantastika yo'nalishida o'ziga xos uslubiga ega bo'lgan yozuvchi Bahodir Abdurazzoqning dedektiv asarlarida hayot va o'lim ifodalanishi alohida masala, uning fantastik hamda ilmiy-fantastika qorishiq hikoya va qissalari esa badiiy tanatologiyada motiv va obrazlar tahlili uchun yaxshi manba bo'la oladi. Xususan, uning "Osiyning intihosi" ilmiy-fantastik qissasi milliy yozuvchilarimiz juda ehtiyotkorona va bir tomonlama munosabatda bo'ladigan e'tiqod, qadar va ilm-fan mavzularini qamrab olgan.

Demak, madaniyat va san'at tarixi, xususan, adabiyotda barhayotlikning jismoniy, ruhiy, ramziy va texnologik-zamonaviy kabi turlariga yondashuv deyarli o'xshash: jismoniy barhayotlik yo ilohiy in'om yoki tavqi la'nat bo'lishi mumkin, ammo aksariyat hollarda barhayotlikning bu turi azob va zeriktiruvchi kuchga ega. Ruhiy va ramziy barhayotlikka san'atda ijobiy, hatto buyuk hodisa sifatida qarashadi. Transgumanizm g'oyalariga yo'g'rilgan texnologik barhayotlik turi esa, asosan, fantastik asarlarda qo'llaniladigan motiv bo'lib, insonning tabiiy va axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy va madaniy tarkibiy qismlaridan mahrum qilish vositasi sifatida ko'rsatiladi. Har qanday holatda ham, chinakam adabiyot va san'at, inson umri qancha davom etishi emas, qanday kechishining ahamiyati yuksakligini hamda ruhiy manguqlikka ishonuvchi, ijobiy mohiyatdagi ramziy barhayotlikka intilishning afzalligini ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Балашова Е. Концепт «бессмертие» в истории и теории культуры : автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Нижний Новгород, 2005. – С. 4.
2. Fischer J. M. Death, Immortality, and Meaning in Life: Precis and Further Reflections // *The Journal of Ethics*. 2022. – Vol. 26. – P. 341–359. – DOI: 10.1007/s10892-022-09392.
3. Tumarkina L. V. The Evolution of Death and Immortality Ideas from Russian Cosmism to Synergy: Systemic-Diachronic Approach // *PENSAMIENTO*. – 2023. – Vol. 79, No. 302. – Pp. 73–92.
4. Худойберганов Р. Ўлим ва барҳаётлик тўғрисида илмий ва диний ғояларнинг фалсафий таҳлили: фалс. фан. номз. дис. – 2010. – 158 б.
5. Косяков Г. Проблема смерти и бессмертия в лирике М.Ю. Лермонтова : дис. ... канд. филол. наук. – Омск, 2000. – С. 3.
6. Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 236 б.; Холмўминов Ж. Ваҳдат ул-вужуд фалсафаси ва Нақшбандия таълимоти (Ибн ал-Арабий, Хожа Муҳаммад Порсо, Хожа Аҳрор Валий ва Мавлоно Абдурахмон Жомий қарашлари асосида). – Тошкент: Тафаккур, 2020. – 324 б.
7. Красильников В. Бессмертие как модус бытия человека в культуре: От классической к постнеклассической парадигме. Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Саранск, 2020. – С. 13.
8. Эпос о Гильгамеше / электрон. текст. – URL: <https://pstgu.ru/download/1180450512.gilgamesh.pdf> (дата обращения: 03.03.2026).
9. Stoker B. *Drakula*. / Tarjimon: G. Ubaydullayeva. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 368 b. ISBN 978-9910999741.
10. Shelli M. *Frankenshteyn*/ Tarjimon: F.Ayubov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – 352 b. ISBN 978-9910-790-87-4.
11. Иброхимова Н. Жодугар ёхуд минг йиллик ҳаёт: фантастик қисса. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 160 б.
12. Abdurazzoq B. Qora kiyik ta'qibi: qissa va hikoyalar. – Toshkent: Pharos Ambition, 2023. – 192 b.